MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Karimjonova Dilrabo Akbarali qizi
Xalqaro Nordik Universiteti
E-mail: dilrabokarimjonova7@gmail.com
ORCID: 0009-0000-9870-1697

Annotatsiya

Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtidorli bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Iqtidorli bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari, ularni aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan metodlar, individual va differensial yondashuv asosida tashkil etiladigan ta'lim jarayonining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari iqtidorli bolalar bilan ishlashda maxsus metodik tizim zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *iqtidorli bolalar, maktabgacha ta'lim, metodika, individual yondashuv, pedagogik texnologiyalar.*

Kirish

Maktabgacha yoshdagi bolalarda turli qobiliyatlarni shakllantirish uchun sezgi organlari va shu asosda amalga oshiriladigan hissiy jarayonlarning rivojlanishi ham zarur. Ushbu qoida hissiyot, idrok, diqqat, fikrlash, tasavvur, xotira kabi psixologik jarayonlarning rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega. Barcha psixik jarayonlar bola shaxsining ijodiy salohiyatini shakllantirish uchun asosdir. Rivojlangan bolalar o'z-o'zini o'rganish qobiliyatining yuqori darajasi bilan ajralib turadi, ular erta nutq va katta so'z boyligi, murakkab so'zlardan foydalanish, shuningdek, hisoblash yoki o'qishning erta rivojlanishi bilan ajralib turishadi. T.S.Komarovaning fikricha, "Maktabgacha yoshdagi bolalarning har qanday qobiliyatlarini rivojlantirish narsa va hodisalarni bevosita bilish tajribasiga asoslanadi. Idrokning barcha turlarini rivojlantirish, ob'ektlarning shakli va hajmini, ularning qismlarini, qo'llarining harakatlarini navbat bilan o'zlashtirish jarayoniga kiritish kerak, shunda qo'l harakati tasviri shakllanadi[1]. Maktabgacha yosh davri bolaning intellektual, ijodiy va shaxsiy rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning qobiliyat va iqtidorlari namoyon bo'la boshlaydi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtidorli bolalarni erta aniqlash va ular bilan tizimli ishlash ta'lim sifatini oshirishning muhim omili sanaladi. Amaliyotda iqtidorli bolalar bilan ishlash ko'pincha umumiy ta'lim metodlari asosida olib borilmoqda, bu esa ularning salohiyatini to'liq ochib

[1] "MAKTABGACHA YOSHDAGI IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH METODIKASI".Sirojiddinova Shodiya Xasanovna. Navoiy Davlat Universiteti

berishga yetarli emas. Shuning uchun mazkur yo‘nalishda metodikani takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Maqsad

Maktabgacha ta’lim tashkilotida iqtidorli bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslash.

Vazifalar

1. Iqtidorli bolalar tushunchasining pedagogik-psixologik mazmunini aniqlash.
2. Maktabgacha yoshdagi iqtidorli bolalarning rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish.
3. Iqtidorli bolalar bilan ishlashda qo‘llaniladigan metod va usullarni o‘rganish.
4. Individual va differensial yondashuv asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
5. Taklif etilgan metodikaning samaradorligini aniqlash.

Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

-ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
-pedagogik kuzatish;
-suhbat va diagnostika metodlari;
-faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv;
-eksperimental metod;
-natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish.

Metodologik asos sifatida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va kompetensiyaviy yondashuv olindi.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

-individual metodlar iqtidorli bolalarning qiziqishini kuchaytirdi;
-ijodiy topshiriqlar bolaning mustaqil fikrlashini rivojlantirdi;
-differensial yondashuv orqali bolalarning qobiliyatlari yanada yaqqol namoyon bo‘ldi;
-metodika asosida ishlangan guruhlarda rivojlanish ko‘rsatkichlari sezilarli oshdi.

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotida iqtidorli bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish ularning intellektual va ijodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Maxsus metodik yondashuvlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni iqtidorli bolalarni har tomonlama rivojlantirishning samarali vositasidir. Iqtidorli bolani topish, ular bilan alohida ishlash, ularning har biriga individual sifatida qarash, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, munosabatlarni yaxshilash, ota-ona bola ,tarbiyachi munosabatlarini baland tutish va ijodiy ishlash juda zarurdir. Eng muhimi, tabiatning insoniyatga bergan ajoyib sovg’asini yanada rivojlantirish va boladagi iqtidorni

iste'dodga aylantirish uchun astoydil harakat qilish lozim[2]. Buning uchun albatta pedagoglar doimiy izlanishda bõlishi va boladagi iqtidorni õz vaqtida aniqlab to'g'ri yo'naltira olishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva, N. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Fan.
2. Yo'ldoshev, J. (2019). Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Toshkent.
3. Qodirova, D. (2021). Iqtidorli bolalar bilan ishlash metodikasi. Maktabgacha ta'lim, 2(3), 25–29.
4. "MAKTABGACHA YOSHDAGI IQTIDORLI BOLALAR BILAN ISHLASH METODIKASI". Sirojiddinova Shodiya Xasanovna .Navoiy Davlat Universiteti.Maqola

[2] Qodirova, D. (2021). Iqtidorli bolalar bilan ishlash metodikasi. Maktabgacha ta'lim, 2(3), 25–29